XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 22 - fevral VI-64-13-11-154-K/24 Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga (*Keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi.*) muvofiq, Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda erkinliklar berilib, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha stavkalarini belgilash, mahalliy budjeti xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi. Mazkur Qonunga hamda O‘zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga saosan Buvayda tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq hisobidagi mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 119-126-moddasiga hamda“2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq Buvayda tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Ergashevning 2023-yil mahalliy budjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti qabul qilinsin. Mazkur hisobotdan kelib chiqib, Buvayda tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq hisobidagi mablag‘lari **1319.0 mln.so‘m** miqdorida shakllanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buvayda tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq hisobidagi mablag‘larini birinchi navbatda Hukumat qaror va bayonlarida ko‘zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirishga, muhim Davlat dasturlari ijrosini ta’minlashga, aholini turmush farovonligini oshirishga hamda favqulodda vaziyatlarda va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar ijrosini ta’minlashga yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Buvayda tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq hisobidagi mablag‘lari belgilangan maqsadlar uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin. Bunda:

- fuqarolar ishtirokining tuman budjetlari qo‘shimcha manbalarining kamida 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda ya’ni **395,7 mln.so‘m** hamda 2023-yildan qolgan qarzdorlik **3.0 mln.so`m** “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirilsin;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi "Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 132-sonli qarorining 2-bandiga asosan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini to‘ldirish uchun **50,0 mln.so‘m** yo‘naltirilsin;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-5020-sonli qarorining 7-bandiga asosan «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini to‘ldirish uchun **50,0 mln.so‘m** yo‘naltirilsin;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 25.10.2021-yildagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 656-sonli qaroriga asosan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun uy-joylar ajratish va xarid qilish xarajatlari uchun **137,5 mln.so‘m** yo‘naltirilsin;

- Buvayda tuman hokimligi va Buvayda tuman Qo‘riqlash bo‘limi o‘rtasida tuzilgan shartnoma bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni bartaraf etish uchun **69,2 mln.so‘m** yo‘naltirilsin;

- Buvayda tuman hududidagi tuproqli ichki yo‘llarga hashar yo‘li bilan mayda tosh yotqizish ishlarini amalga oshirilishi uchun talab etiladigan yoqilg‘i-moylash mahsulotlarini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **21,6 mln.so‘m** yo‘naltirilsin;

- Buvayda tuman hokimligi, Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi xuzuridagi ko‘nikma markazining bir qator xodimlarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ularda ishga bo‘lgan mas’uliyat va munosabatlarini oshirish hamda ular o‘rtasida korrupsiyaviy muhitning shakllanishini oldini olish maqsadida joriy yilning I-choragi yanvar, fevral va mart oylari uchun ustama to‘lovlari belgilangansin hamda belgilangan ustamani to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman hokimligiga **253.4 mln.so‘m**, Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashi kotibiyatiga **39.1 mln.so‘m**, tuman hokimligi xuzuridagi Ko‘nikma markazi **12.0 mln.so‘m,** tuman Iqtisodiyot va moliya bo`limiga **130.5 mln.so`m,** tuman hokimligi yuristkonsulti B.Rahmonovga transport harajatlari uchun kompensatsiya uchun **24.0 mln. so`m** jami **459.0 mln.so‘m** mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda hukumati qaror va farmonlarida

belgilangan tadbirlar (boshqa xarajatlar)ga **133.0 mln.so‘m**, jumladan;

- ijtimoiy soha (maktabgacha va maktab ta’limi, tibbiyot sohalari va boshqa budjet muassasalari)ning moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash va ularni joriy ta’mirlash xarajatlari uchun;

- tuman markaziy ko‘chalarini obodonlashtirish maqsadida turli yoritish va bezakli chiroqlari o‘rnatish, manzarali daraxtlar va gullar ekish xarajatlari uchun;

- tasdiqlangan “Yo‘l xarita”lari ijrosini ta’minlash hamda aholi osoyishtaligini ta’minlash, tumanda jinoyatchilikni oldini olishga karatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli hamda 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash uchun;

- qonunda taqiqlanmagan boshqa maqsadlar uchun yo‘naltirilsin.

4.Tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.G‘aniyev), ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda, o‘z vaqtida tegishli jamg‘armalarga o‘tkazish vazifasi yuklansin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Mirzaxalilov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)lar tegishli ravishda budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini Xalq deputatlari tuman Kengashga kiritib borilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjetn, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo`yicha” doimiy komissiyasi raisi (X.Akbarov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Mirzaxalilov) zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Odiljonovich I. B.**